

STUDENT-CENTERED LEARNING – THE KEY TO INDIVIDUAL DEVELOPMENT

Abdullayeva M.B.

Andijan State Pedagogical Institute

Annotation: This article talks about the most effective model in today's education system - the person-centered education model. Through this article, specific aspects, priorities, principles and recommendations for application of person-oriented education were given.

Key words: Person-oriented education, educational technologies, methodology, teaching technologies, educational process, personality.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi ta'lim tizimidagi eng samarali bo'lgan model-shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli haqida so'z boradi. Ushbu maqola orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatlari, ustuvorligi, tamoyillari va qo'llash bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan

Kalit so'zlar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim texnologiyalari, metodika, o'qitish texnologiyalari, o'quv jarayoni, shaxs.

Аннотация: В данной статье говорится о самой эффективной модели в современной системе образования – модели личностно-ориентированного образования. В этой статье были даны конкретные аспекты, приоритеты, принципы и рекомендации по применению личностно.

Ключевые слова: Личностно-ориентированное образование, образовательные технологии, методология, технологии обучения, образовательный процесс, личность.

KIRISH

Hozirgi kungacha ta'lim tarixning bir bo'lagi sifatida shakllanib kelmoqda va bugungi texnika asrida esa u yangi bosqichga ko'tarildi. Ta'limda ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi va davom etmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabalarning individualligidan kelib chiqqan holda ularning qiziqishlari va asosiy qobiliyatlarini tog'ri shakllantirishga imkon yaratadi. Individual farqlarga yo'naltirilgan dastlabki tadqiqotlardan boshlab komputer texnologiyalari asosida o'qitish davriga o'tish davomida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asta-sekin zamonaviy ta'lim tizimlariga integratsiya qilindi va yanada takomillashdi.

Hozirgi rivojlanayotgan davr bizdan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tishni taqazo qilmoqda. Uning asosida esa ma'naviy, muloqot va kognitiv ya'ni yaratuvchan, tanqidiy, tizimli va nostandart fikrlash, keng dunyoqarash, hissiy idrok, katta va o'zgaruvchan ma'lumot bazasi bilan ishlay olish qobiliyati kabi sifatlarini doimiy o'zgarib borayotgan muhitda rivojlanishi yotadi.

Bugun biz SPOD-dunyodan (Steady — barqaror; Predictable — oldindan aytib bo'ladigan; Ordinary — oddiy; Definite — aniq) **VUCA-dunyoga** (Volatility — o'zgaruvchanlik; Uncertainty — noaniqlik; Complexity — murakkablik; Ambiguity — mujmallik)

o'tayotganimiz haqida ko'p aytilmoqda. Bizni kelajakdan turib o'ziga chorlovchi dunyo zamonaviy ta'lim oldiga vazifalar qo'yadi va uning yo'nalishlarini aniqlaydi.

Ta'limning yangi bosqichga ko'tarilishi bizdan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tishni taqazo etadi. O'quv materiallarini shaxsga yo'naltirgan holda taqdim etish va amalga oshirish ta'limning sifatini yanada yaxshilaydi.

TATQIQOTNING USLUBI

O'quvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchining shaxsiy individual imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi.

Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi. Birinchi navbatda har bir o'quvchiga buyuk shaxs deb qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish hamda unga ishonish kerak. Buning uchun sinf xonada shunday ta'lim muhitini yaratish kerakki, o'quvchi o'zini shaxs deb his qilsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin. Bu orqali biz bolalarda o'ziga ishinch tuyg'usini beramiz. Har bir o'ziga ishongan bola esa kelajakda buyuk ishlarni boshlashga ikkilanmaydi. Bundan tashqari shaxsga yo'naltirilgan talimda oddiy an'anaviy usulda qo'llaniladigan bolalarning aybini bo'rttirish yoki bolalarga tazyiq o'tkazish kabi xatolarga yo'l qo'yilmaydi. Misol uchun bolalardan ona tili darsida qoidani to'liq kitobda qanday bo'lsa shunday emas balki o'z tushunganlari asosida izohlangan fikri so'raladi. Bu orqali bolalarda ko'r ko'rona yodlash emas balki tushunib o'rganish ko'nikmasni nutqini to'liq izchil va tog'ri yetkazib berishni bunda so'zlarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashni o'rganadilar. O'qituvchi zo'ravonlik pedagogikasidan butunlay vos kechiladi. Darsda o'zini yomon tutayotgan o'quvchini urishib, kamsitmasdan uning bu holga tushish sabablarini o'rganib chiqadi va har qanday vaziyatda bolalarga muloyimlik bilan munosabatda bo'ladi. Bunda esa o'qituvchi o'z ustida tinmay ishlashi, ta'lim tizimidagi yangiliklardan boxabar bo'lishi, har bir darsga kreativ yondasha olishi va shu asnosida o'quvchilarga dars muhitini har biri uchun muvaffaqiyatli tashkil eta olishi kerak. Bunda abatta hozirga zamonaviy texnika asri yutuqlaridan unumli foydalana olishi shart.

Bolalar psixologiyasi, fiziologiyasi har xil bo'lgani kabi ularning qabul qilish ma'lumotlar bilan ishlash usuli ham turli xildir. Ba'zi bolalar vizual tarzda ko'rib o'rgansalar axborotni katta qismini eslab qolsa, ba'zi bolalar eshitish orqali yaxshi o'rganadi. Ba'zilar esa kinestetik ya'ni ushlab ko'rib, qilib ko'rsa o'rganishlari va esda saqlab qolishlari tez bo'lgan bolalar bo'lishadi. O'qituvchi shaxsga yo'naltirilgan dars tizimini tashkil qilmoqchi bo'lsa albatta shu uch jihatni e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Darsga audio, video materiallar yaratishi, kartochkalar, ko'rgazmalar yasashi yoki shunga o'xshash bolalar o'zlari bajara oladigan mashg'ulotlar tayyorlashi kerak bo'ladi. Bu mashg'ulotlar shunday izchil va puxta o'ylangan bo'lishi kerakki bunda barcha o'quvchilar qatnashishi kerak. O'quvchilarni darsda jamoaviy ishlash ko'nikmasini ham shakllantirishi zarur. O'quvchi darsda faqar bilim olishi emas balki kommunikativlik kompetensiyasini ham shakllantirish kerak. Chunki inson doimo jamiyatning bir bo'g'ini sifatida yashaydi.

Har bir pedagog shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shaklidan foydalanar ekan u bir nechta shartlarga qat'iy rioya qilishi kerak:

a)har bir o'quvchini o'ziga xos buyuk shaxs sifatida ko'rish;

- b)o'quvchini hurmat qilish;
- d)o'quvchining ruhiy holatini to'g'ri baholay olish;
- e)o'quvchining kuchi, imkoniyatlari va intilishlariga ishonch bildirish;
- f)har bir o'quvchiga tolerant munosabatda bo'lish;
- g)har bir o'quvchi uchun qulay ta'lim muhitini yaratish;
- h)o'quvchining hohish-istaklari va qiziqishlarini inobatga olish;
- i)o'quvchilarning mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashi uchun muhit yaratib berish;
- j)o'quvchilarning o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilishga o'rgatish.

Ta'lim jarayonida har bir pedagog ushbu jihatlariga e'tibor bergan holda yondashsa ushbu sinf o'quvchilarning aqliy, ruhiy jihatdan rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan bo'ladilar.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muammoli ta'lim, modul ta'limi, rivojlantiruvchi ta'lim, o'yin texnologiyalari, interfaol ta'lim, hamkorlik ta'limi, individual ta'lim, masofaviy ta'lim va mustaqil ta'lim kabi turlari mavjud. Avtoritat texnologiyada pedagog yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi faqat "obyekt" vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining tashabbuskorligi va mustaqilligi yo'qoladi. O'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. An'anaviy o'qitish asosan bilim ko'nikma, malakani o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini nazarda tutmaydi. An'anaviy ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- a)zo'ravonlik pedagogikasi;
- b)o'qitishning tushuntiruv-ko'rgazmali usuli;
- d)ommaviy o'qitish.

Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda har bir avlod oldingisidan ko'ra ertaroq rivojlanyapti intellektual salohiyati ham borgan sari o'sib bormoqda. Bunday davrda ushbu usullar o'z samarasini yo'qotgan. Hozirgi kunda shaxsga yangicha qarash kerak.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas subyekt hisoblanadi.
2. Har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchilik esa iste'dot egasi hisoblanadi.
3. Yuqori etik qadryatlar (sahiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislati hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish.
2. O'quvchining erkin tanlab olish huquqi.
3. Xatoga yo'l qo'yish huquqi.
4. O'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi.
5. Boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashlik qilish; chegaralab olish emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatning asosiy mazmuni hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayrinsoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechish. Umuman olganda, tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, jazolash esa insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishni susaytiradi, unda tobelik xususiyatini shakllantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim insonparvarlik, hamkorlik, erkin tarbiyalash ya'ni bolani majburlamasdan balki uni qiziqishlarini inobatga olgan holda yondashish, shaxsni o'zida yashiringan yangi qobiliyatni yuzaga chiqarish, mustaqil o'qib-o'rganish kabi tamoyillarga ega.

Ushbu tamoyillar orqali pedagog barkamol, intellektual salohiyatli, erkin fikrli, mulohazali, tashabbuskor, kreativ, intiluvchan yosh avlodni tarbiya qilishi zarur.

XULOSA

Ta'lim tizimi hozirgi kungacha har bir rivojlanish davrida yangicha uslub va tamoyillar asosida tashkil topmoqda. Bugungi kun ta'lim tizimining sharti bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelidan foydalanish. Inson qadri, shaxsni ulug'langan bugungi kunda ta'lim tizimida ham har bir o'quvchi, har bir talaba alohida bir subyekt vazifasini o'tamoqda. Dars jarayonini keng ko'lamli axborot resurs bazalaridan foydalangan holda yangi ilg'or telekommunikatsiya vositalari orqali tashkil qilish hozirgi kun talabi. Tashkil qilish jarayonida esa har bir o'quvchining individual, aqliy, hissiy jihatlarini inobatga olish esa o'qituvchining mahorati hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchi o'zini qadrlay sezadi, darsda erkin ayni paytda tartibli holda ishtirok etadi, o'zini e'tibot markazida his qiladi va shuning uchun o'zining eng namunalari jihatlarini ko'rsatishga urinadi. Dars davomida energiyaga to'la turadi. Har bir topshiriqni o'zi xohlab bajaradi. Kayfiyati yaxshi bo'lganligi, doimo aktiv holdaligi bolaga ijobiy ta'sir qiladi hamda mavzuni eslab qolishi osonlashadi. Har kuni maktabga ishtiyoq bilan keladi. Bunday o'quvchi esa kelajakda shijoatli, yangiliklarga intiluvchan o'z imkoniyatlarini baholay oladigan, har qanday sharoitda tog'ri xulosa chiqara oladigan shaxs bo'lib yetishadi. O'zining imkoniyatlari hamda qobiliyatlarini anglagan holda o'zining mustaqil qarorini qabul qila oladi.

Bir so'z bilan xulosa qilganda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bu insonni barcha jihatlarini inobatga olgan tarzda rivojlantirish va uni erkin fikrli, keng dunyoqarashli, kreativ va eng asosiysi baxtli inson bo'lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2009.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish

- va rejalashtirish. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashr., 2011.
3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Moliya”, 2003. 6- bet.
4. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Tafakkur”, -2011. 6- bet.